

SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni 2 621 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024-yil 1- oktabr holatiga nisbatan -189 ta yoki 93,3 foizga kamaygan.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 360 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ularning 31,9 foizi Navoiy shahri, 8,1 foizi Navbahor tumani, 21,7 foizi Karmana tumani, 8,1 foizi Xatirchi tumani hissalariga to'g'ri keldi.




2025- yil 1- oktabr holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2025- yil yanvar-sentabr oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	2 621	40	2 581	360
Navoiy sh.	660	21	639	115
Zarafshon sh.	216	2	214	15
G'ozg'on sh.	228	-	228	27
Konimex t.	66	2	64	8
Qiziltepa t.	240	1	239	21
Navbahor t.	186	4	182	29
Karmana t.	480	4	476	78
Nurota t.	191	2	189	25
Tomdi t.	46	1	45	5
Uchquduq t.	97	1	96	8
Xatirchi t.	211	2	209	29


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2025- yil 1- oktabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2025- yil yanvar- sentabr)



Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i hisoblanadi.

2025-yil yanvar- sentabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 137 300,0 mlrd. soʻmni yoki 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 108,5 foizni tashkil etdi.

Jumladan, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 17 367,5 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 121,5 foizni, qayta ishlash sanoati 113 995,0 mlrd. soʻmni yoki 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 107,2 foizni, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 5 632,0 mlrd. soʻmni yoki 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 85,5 foizni, suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish 305,5 mlrd. soʻmni yoki 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati) 2,8 martani tashkil etdi.




2025- yil yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>fizik hajm indeksi (oʻsish surʻati, % da)</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	137 300,0	108,5
Togʻ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	17 367,5	121,5
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	16 339,0	119,2
Boshqa turdagi togʻ-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	1 028,5	2,2 m.
Qayta ishlash sanoati	113 995,0	107,2
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	5 407,3	124,6
Toʻqimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3 120,3	84,3
Yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohl va toʻqish uchun materiallardan buyumlari, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	295,7	127,3

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)</i>
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	52,1	82,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,9	109,5
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7 028,1	101,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,002	0,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 555,1	102,0
Metallurgiya sanoati	92 776,7	108,3
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	942,7	113,2
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	174,5	61,3
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	365,0	77,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	796,9	106,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	200,1	43,1
Boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	18,2	-
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	7,2	262,8
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	253,2	72,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	5 632,0	85,5
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	305,5	2,8

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 113 995,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida - 2,8 martaga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 21,5 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 7,2 foizga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda - 85,5 foizni tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 367,5 mlrd soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,7 % ga toʻgʻri keldi.


Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning maʼlum turi uchun birdan - bir toʻliq meʼzon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni oʻz ichiga oladi.



2025- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 113 995,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,0 % ni tashkil etdi.

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 0,3 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 7,1 % (8,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 85,0 % (82,7 %), quyi texnologiyali 7,8 % (8,5 %)ni tashkil etgan.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish *(yirik korxonalar bo'yicha)*

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025- yil yanvar-sentabr</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Chaqiq tosh	<i>tn.</i>	230 976,4	2,4 m.
Qayta ishlash sanoati			
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	68,5	101,8
Yogurt	<i>tn..</i>	29,5	156,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolklar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar	<i>ming dona.</i>	1 940,5	88,1
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	<i>ming dona.</i>	170,6	70,1
Argon	<i>ming.m³</i>	1 406,6	141,3
Azot	<i>ming.m³</i>	390,2	3,1 m.
Kislorod	<i>ming.m³</i>	671,4	139,6
Uglerod dioksidi	<i>tn</i>	20 944,9	2,6 m
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar	<i>ming. tn.</i>	417,7	96,7
Natriy sianidlari va sianidoksidlari	<i>ming. tn.</i>	48,6	124,6
Suvsiz ammiak	<i>ming. tn.</i>	603,2	109,0
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	10 381,6	111,7
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak	<i>tn.</i>	248 390,0	100,9
Xlor	<i>tn.</i>	2 015,0	161,7
Portlandsement	<i>ming tn.</i>	1 697,5	91,0
Mochevina (karbamid)	<i>ming tm azot.</i>	204,6	104,3

Argon ishlab chiqarish

(2025- yil yanvar-sentabr oylarida)



Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2025- yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 406,6 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,3 foizga ko'paydi.

Kislorod ishlab chiqarish

(2025- yil yanvar-sentabr oylarida)



Kislorod – rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz. Kislorod eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami 671,4 ming m³ kislorod ishlab chiqarildi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 39,6 foizga ko'paydi.

Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

(2025- yil yanvar-sentabr oylarida)



Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 10 381,6 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

Metallurgiya sanoati



Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 81,4 % bo‘lib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 8,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 92 776,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni va 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6 693,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar- sentabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni va 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,3 foizni tashkil etib, ishlab chiqarish hajmi 1 459,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 632,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr*	2025-yil yanvar-sentabr
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	7 729,0	8 065,0	5 972,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 343,1	3 354,4	3 082,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 305,5 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr*	2024-yil yanvar-sentabr*	2025-yil yanvar-sentabr
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	39,1	72,7	236,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	110,6	98,3	63,0
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	39,6	32,3	15,6



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 226 ta loyiha bo'yicha 7 531,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 50,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 1 056 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.





**2025- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha
hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm *</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da</i>	
Jami	137 300,0	108,5	8,9
Navoiy sh.	117 860,7	108,7	1,6
Zarafshon sh.	677,0	103,3	98,0
G'ozg'on sh.	178,3	108,7	100,0
Karmana t.	9 527,3	102,4	27,3
Konimex t.	681,4	102,8	43,4
Qiziltepa t.	1 331,2	105,1	94,0
Navbahor t.	941,8	105,3	59,6
Nurota t.	430,3	105,3	88,3
Tomdi t.	69,6	104,8	98,5
Uchquduq t.	348,5	102,4	99,2
Xatirchi t.	1 268,4	87,6	62,2


Navoiy shahrida (2024- yilning yanvar- sentabr oyiga nisbatan (108,7 %), G'ozg'on shahrida (108,7) hamda Navbahor va Nurota tumanlarida (105,3 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida (o'sish sur'ati) yuqori o'sish sura'tlari kuzatildi.



2025- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat

	Sanoat mahsulotlari, ming so'm	
	2024	2025
Jami	94 276,4	124 631,2
Navoiy sh.	523 766,7	698 885,4
Zarafshon sh.	7 157,9	7 426,2
G'ozg'on sh.	13 684,6	18 983,7
Karmana t.	62 960,7	66 666,4
Konimex t.	16 837,1	18 386,1
Qiziltepa t.	7 069,2	8 042,2
Navbahor t.	7 960,8	7 644,3
Nurota t.	4 227,6	4 717,4
Tomdi t.	3 962,3	4 565,5
Uchquduq t.	9 882,9	8 751,9
Xatirchi t.	6 979,0	5 832,4

2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so'm



2025- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Navoiy shahriga (698 885,4 ming so‘m), Karmana tumaniga (66 666,4 ming so‘m), G‘ozg‘on tumaniga (18 983,7 ming so‘m), Konimex shahriga (18 386,1 ming so‘m), Uchquduq tumaniga (8 751,9 ming so‘m) va Qiziltepa tumaniga (8 042,2 ming so‘m) to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 380,5 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Joriy yilda qo‘shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 3,8 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati), % da	mlrd. so‘m	Ulushi, % da
Jami	137 300,0	108,5	5 380,5	3,8
Navoiy sh.	117 860,7	108,7	3 539,7	3,0
Zarafshon sh.	677,0	103,3	64,6	9,5
G‘ozg‘on sh.	178,3	108,7	9,0	5,0
Karmana t.	9 527,3	102,4	709,4	7,4
Konimex t.	681,4	102,8	35,9	5,3
Qiziltepa t.	1 331,2	105,1	133,0	10,0
Navbahor t.	941,8	105,3	119,8	12,7
Nurota t.	430,3	105,3	16,4	3,8
Tomdi t.	69,6	104,8	1,1	1,5
Uchquduq t.	348,5	102,4	0,4	0,1
Xatirchi t.	1 268,4	87,6	751,3	59,2

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da


2024- yil yanvar- sentabr

2025- yil yanvar- sentabr



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 12 186,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 8,9 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



2025- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush G'ozg'on shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,6 %), Tomdi tumani (98,5) Zarafshon shahri (98,0 %), Qiziltepa (94,0 %), Nurota (88,3 %), Xatirchi (62,2 %), Navbahor (59,6 %), Konimex (43,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Navoiy shahriga (1,6 %) hamda Karmana tumaniga (27,3 %) to'g'ri keldi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Mahalliyashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).